

## **2024 yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT**

### **ИНФОРМАЦИЯ об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта за I полугодие 2024 года**

#### **I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.**

2024 yilning yanvar-iyun oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **12,5** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar, kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **8,0** mln. dollar (63,6%);
2. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar) – **1,6** mln. dollar (12,8 %);
3. Xizmatlar – **2,9** mln. dollar (23,6%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'limgan, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

#### **II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.**

2024 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida **168** ta (grafik bo'yicha 167 ta) loyiha bo'yicha **471,6** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **100,5%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **145,5%**ni tashkil etdi.

Xususan, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun yangi turdag'i 4,5x6,0 metrli maydalash tegirmoni, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari kabi mahsulot turlari ishlab chiqarildi.

#### **III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.**

2024 yilning yanvar-iyun oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **3 213,2** mlrd. so'mni va 2023 yilning mos davriga nisbatan 127,0% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2024-yilga mo'ljallangan import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari joriy yilninig yanvar-iyun oylarida **56,7** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalida to'liq o'rghanish orqali ma'lumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

Tashkil etilayotgan sanoat yarmarkalarida (Jizzax, Buxoro, Namangan, Samarqand va Fergana viloyatlarida) faol ishtirok etib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan **955,6** mlrd. so'mlik shartnomalar imzolandi.

"Navoiy KMK" AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo'yicha doimiy choralar ko'rilmoxda.